

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA FAKULTETI**

**PEDAGOGIKA- PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**

“Himoya qilishga ruxsat beraman”  
Pedagogika-psixologiya fakulteti  
dekani  
\_\_\_\_\_prof. X.A.Meliev  
“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2013 y.

51408000 – Pedagogika – psixologiya yo`nalishi bo`yicha bakalavr  
darajasini olish uchun

**“Uzluksiz ta’lim jarayonida pedagog faoliyatining o’rni ”**  
mavzusida bajarilgan

***BITIRUV MALAKAVIY ISHI***

**Bajaruvchi:** Hamrayeva Aziza Farhodovna.

**Ilmiy rahbar:** p.f.n. A.Meliboyev

**Ishni himoyaga tavsiya etaman:** p.f.n. A.Meliboyev \_\_\_\_\_  
(ilmiy rahbar ismi va sharifi) (imzo)

**Pedagogika - psixologiya kafedrasi**  
**(Qaror № \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_ 2013 y)**  
**himoyaga tavsiya etilgan.**

**Kafedra mudiri: v/b Qodirova M.Q.**  
(Ismi va sharifi)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

**Jizzax – 2013**

## MUNDARIJA

**KIRISH.....**

### **I BOB. UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK FAOLIYATNING METODOLOGIK ASOSLARI**

1.1. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" pedagog faoliyatining nazariy asosi sifatida.....

1.2. Uzluksiz ta`lim jarayonida g'arb va sharqona ta`lim-tarbiya vosita va metodlarida pedagogik faoliyatning ilmiy-nazariy ahamiyati .....

Birinchi bob bo`yicha xulosalar.....

### **II - BOB. UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK FAOLIYATNING MAZMUN VA MOHIYATI**

2.1. Uzluksiz ta`lim jarayonida pedagogik faoliyatning usullari.....

2.2. Uzluksiz ta`lim jarayonida o`qituvchining pedagogik mahorati va texnikasi - umumiy pedagogik faoliyat yig'indisi sifatida .....

2.3. Uzluksiz ta`lim jarayonida o`qituvchi faoliyatining muloqot madaniyati va uning tashqi qiyofasining amaliy ahamiyati .....

Ikkinchi bob bo`yicha xulosalar.....

**TAJRIBA - SINOV NATIJALARI .....**

**UMUMIY XULOSA VA TAKLIFLAR .....**

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI .....**

**ILOVALAR .....**

## KIRISH

*“Bugungi zamon talabi, ertangikelajagimizning tashvishlari bizdan xalq ta’limi tizimini isloh qilish zarurligini taqozo etmoqda”*

**I.A. KARIMOV**

**Tadqiqotning dolzarbligi.** Istiqlool barcha sohalarda bo’lgani kabi xalq ta’lim sohasida ham buyuk burulishlar qildi. Endilikda milliy pedagogikamiz jadal sur’atlarda taraqqiy etayotir. Ota-bobolarimiz azal-azaldan bola tarbiyasiga alohida e’tibor qaratganlar. Al-Buhoriy, At-Termiziy, Beruniy, Az-Zamaxshariy, Navoiy, Bobur, Ogohiy, Abdulla Avloniy singari ulug’ olimi adiblar, fozilu fuzolalar ta’lim-tarbiya borasida ko’p asarlar bitganlar. Ular ta’limdagi milliy xususiyatlarga diqqat e’tiborni qaratilgan. Mustaqillik yillariga qadar ularning pand-o’g’itlari etarli darajada o’rganilmadi. Tarixdan ma’lumki, bir vaqtlar Sharq pedagogikasi nihoyatda gullab-yashnagan. Olmon olimi Xerler “Sharq Yevropaning muallifidir” deganda ana shu rivojlanish davrlarini ko’zda tutgandir ehtimol.

Mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishda barkamol avlod tarbiyasi katta ahamiyat kasb etadi. Kelajagimiz poydevori bo’lgan yoshlarni tarbiyalashda sog’lom ijtimoiy muhitni yaratish, ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash va e’zozlash muhimdir.<sup>1</sup> Prezidentimiz aytganidek, faqatgina ma’rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so’z bilan aytganda, o’zlarini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatimida o’ziga munosib, obro’li o’rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashish mumkin.

Pedagogika jamiyatning rivojlanish qonun-qoidalariga tayangan holda taraqqiy etadi. Bugungi kunda esa ana shu jarayon avj pallasiga kirdi. Xususan, huquqiy davlat barpo etish yo’lida amalga oshirayotgan ishlar, milliy ong kun sayin yuksalayotganidan dalolat beradi. Inson ongi taraqqiy etmas ekan, ijtimoiy hayot jabhalarida hech bir o’zgarish sezilmaydi. Zotan “Faqatgina chinakam

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. Biz kelajagimizni o’z bilan quramiz. 7 jild T.: O’zbekiston 134-b

ma`rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so`z bilan aytganda, o`zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o`ziga munosib obro`li o`rinni egallashi uchun fidoiylilik bilan kurashishi mumkin”<sup>2</sup>.

Madomiki, zamon jadal sur`atlarda o`zgarayotibdimi, demak, pedagogika ham shu o`zgarishlarga hamohang bo`lmog`i darkor.

“Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma`naviy sog`lom o`sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo`lgan, uyg`un rivojlangan insonlar bo`lib, XXI asr talablariga javob bera oladigan barkamol avlod bo`lib yetishishi uchun barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o`z oldimizga maqsad qilib qo`yganmiz”.<sup>3</sup>

Mamlakatimiz istiqboli, xalqimizning ertangi kuni ko`p jixatdan farzandlarimizning qanday tarbiya olishiga bog`liq. Yurtboshimiz, “Ta`limni tarbiyadan, tarbiyani ta`limdan ajratib bo`lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi” - deya alohida ta`kidlagan edi.<sup>4</sup> Bilim bermoq uchun, bilim olishga intilib, izlanib yashashlari shart. Ana shundagina pok, murg`ak qalblarga ezgulik urug`i sochiladi. Bu urug`ining unib, nishona berishdan ham ortiq quvonchliroq narsa bormi? O`rta Osiyoda juda qadim zamonlarda boshlab farzandlarni o`qitish va ularga savod berish odobi bo`lgan. Masalan “Avesto” ta`limotiga binoan farzand ulg`aygach uni ota –onasi, albatta maktabga berishi shart bo`lgan. Otaning farzandga savod berishi uning uchun ham farz, ham qarzlighi haqidagi tushuncha “Qur`oni Karim” va hadislarda ham bir necha bor eslatib o`tilgan. Ular mahoratli o`qituvchi izlanivchan o`qituvchi, ijodkor o`qituvchi hisoblanadilar. Zamonaviy dars samarali bo`lishi kerak unda: O`qituvchi bugun o`z oldiga qo`ygan maqsadlarni amalga oshira oladigan.

---

<sup>2</sup> Karimov I.A. Ma`naviy yuksalish yo`lida. -T., «O`zbekiston», 1991

<sup>3</sup> Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirish. : -T.: O`zbekiston, 2010.-74-75 b

<sup>4</sup> Karimov I.A. O`zbekistonning o`z istiqloq va taraqqiyot yo`li. TAT. 3-jild. – T.: O`zbekiston, 1996.-366

O'qituvchi halollik va fidoiylilik fazilatlarini o'zida mujassam etishi o'qituvchi o'quvchi ko'z o'ngida chinakam sobiq hayot ta'limini beruvchi ustoz sifatida namoyon bo'lishi zarur.

O'qituvchi zamonaviy darsda "dirijiyor" vazifasini bajarib "sahnada o'ynovchi aktyor" bo'lishi lozim deb o'ylayman.

Bugungi maktab "Shodlik maktabi"ga bugungi dars "quvonch dars"ga aylangandagina o'quvchi maktabga, darsga yuksak hohish-ishonch bilan o'tlanadi. Sinf xonasiga kirar ekan, o'z o'qituvchisiga alohida hurmat, e'zoz bilan kutib oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'z asarlarida fuqaroni "vatan jonkuyari" tarzida ifodalar ekan, u o'zida xalqi, uning an'analari, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat ko'rsatishdek sifatlarni o'zlashtira olishi zarurligini ta'kidlaydi. Jumladan, "O'z xalqiga, uning an'alariga tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib, o'z xalqini millatlarning butun jahon hamjamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni, o'z vatanining jonkuyarlarini tarbiyalash mumkin emas"<sup>5</sup>.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsadi:** Uzluksiz ta'limda o'qituvchi faoliyatning hozirgi kundagi kasbiy va umuminsoniy talablarini, ta'lim jarayonidagi mahoratini, muloqot madaniyatini va texnikasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish.

**Bitiruv malakaviy ishning vazifasi:**

- uzluksiz ta'lim jarayonida pedagogik faoliyatning metodologik asoslarini ko'rsatiish;
- o'qituvchi faoliyati va unga qo'yiladigan kasbiy hamda umuminsoniy talablarni ko'rsatiish;
- o'qituvchining pedagogik mahorati va texnikasini o'rganish;
- o'qituvchi faolyatida muloqot madaniyati va uning tashqi qiyofasi ahamiyatini ochib berish.

---

<sup>5</sup> **Karimov I.A.** Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: «O'zbekiston» 1997

**Tadqiqotning ob`ekti:** uzluksiz ta'lim jarayonida pedagogik faoliyatida shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini o`rganish jarayoni.

**Tadqiqotning predmeti:** uzluksiz ta'lim jarayonida pedagogik faoliyatning shart-sharoitlarni o`rganishning mazmuni, shakl, metod va vositalari.

**Bitiruv malakaviy ishning nazariy metodologik asosini** mustaqil O`zbekiston Respublikasida amal qiladigan uzluksiz ta`lim-tarbiya tizimining nazariy asoslari, qonuniyat va prinsiplari, o`ziga xos yo`nalishlari ta`lim-tarbiya jarayonining shakllanishi, tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o`rgatuvchi fanlar, Jahon va Sharq pedagogik tafakkuri durdonalarini mujassamlashtirgan manbalar, ilmiy asarlari, sharqona ta`lim-tarbiya vositalari va metodlarini o`z ichiga olgan manbalar, O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risda»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «2004-2009 yillarda maktab ta`limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi», dialektik bilish nazariyasi e`tirof etiladi.

**Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi:** tajriba-sinov ishlari Jizzax shahridagi ..... - umumiy o`rta ta`lim maktablarida, ..... olib borildi.

**Ishning birinchi bobi** uzluksiz ta'lim jarayonida pedagogik faoliyatning metodologik asoslari masalasiga bag`ishlangan. Tadqiqotning ushbu qismida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" pedagog faoliyatining nazariy asosi, Sharq va g'arb mutafakkirlarining ta'limotlarida shaxs kamolatiga pedagogning o`rni asoslanganligi, uzluksiz ta'lim jarayonida o`qitish faoliyati mazmuni bilan uzviy bog`liqligi ham o`rganilganligi e`tiborlidir.

**Ishning ikkinchi bobi** pedagogik mahorat ta`lim-tarbiya jarayonining bosh mezoni sifatida masalasiga bag`ishlangan. Tadqiqotning ushbu qismida ta'lim jarayonida pedagogik faoliyatning usullari, o`qituvchining pedagogik mahorati va texnikasi - umumiy pedagogik faoliyat yig`indisi sifatida, o`qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va uning tashqi qiyofasining amaliy ahamiyati, ochib berishga bag`ishlangan.

**Ilmiy amaliy ahamiyati.**

Tadqiqotimizdan olingan natijalar pedagogika fanini yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyitadi. Olingan natijalardan pedagog faoliyati jarayonida, o'quvchi – talabalar bilan ishlashda, individual yondashuv borasida foydalanish mumkin. Mazkur ishning natijasi pedagog faoliyatida yanada samaraliroq ahamiyatga ega.

### **Ilmiy –nazariy ahamiyati**

Tadqiqotimizdan olingan natijalar pedagogika fanini yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyitadi. Olingan natijalardan pedagog faoliyati jarayonida, o'quvchi – talabalar bilan ishlashda, individual yondashuv borasida foydalanishi mumkin. Mazkur ishning natijalari pedagog faoliyatida yanada samaraliroq ahamiyatga ega .

### **Tadqiqotning ilmiy farazi**

Ta'lim harayonini tashkil etishda pedagogic faoliyatning didaktik tamoyillari va qoidalari, hamda pedagogic faoliyatning asosiy formasi va uning oldiga qo'yiladigan hozirgi talabi pedagog faoliyatni rivojlantirish katta ahamiyatga ega.

### **Ishning tarkibiy tuzilishi:**

Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, beshta paragraf, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan tashkil topgan.

# **I BOB. PEDAGOGIK MAHORATNING INSONIYAT TARIXIDA PAYDO BO`LISHI**

## **1.1. “KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI” PEDAGOG FAOLIYATINING NAZARIY ASOSI SIFATIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida 1997 – yil 29 avgustda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi.

Qonunlarga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi, jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgandir.<sup>1</sup>

Boshlang‘ich kasb-hunar ta’lim o‘quv yurtlarida qariyb 20 ming o‘quvchi va malakali mutaxassislar o‘quvchilarga kasb-hunar sirlarini o‘rgatib bormovdalar.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimida ham islohotlar amalga oshirilib, bu borada 23 ta institut, 16 ta fakultet, 4 ta markaz va 14 ta malaka oshirish kurslari pedagog kadrlar malakasini oshirish, ularni fan va texnika yutuqlari, ta’lim-tarbiya sohasidagi yangiliklardan bohabar etib bordi.

Fan va ta’lim sohasida xalqaro aloqalar yo‘lga qo‘yildi hamda bu borada muayyan yutug‘lar qo‘lga kiritildi.

Shunga varamay, sodir etilgan o‘zgarishlar kadrlar tayrlash sifatini oshirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish talablariga muvofiq bo‘lishini ta’minlay olmadi.

Mutaxassislar tayrlash hamda ta’lim-tarbiya tizimi jamiyatda olib borilayotgan isloh, yangilanish jarayoni talablari bilan bog‘lanadi.

Majburiy to‘qqiz yillik ta’limga asolangan o‘n bir yillik o‘rta ta’lim mazmuni ilmiy jihatdan to‘laqonli asoslanmadi, o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish hamda

---

<sup>1</sup> Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Oliy ta’lim: me’oriy hujjatlar tўplami. – Toshkent: Shark nashriyat – manbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bo‘sh ta’xiriya. 2001. – B. 20.



mustaqil fikr yuritish, mehnat faoliyatini tashkil etish ko'nikmalarini shakillantirishni ta'minlay olmadi.

Har yili tayanch maktablarini 100 ming nafarga yaqin bitiruvchisi ishlab chiqarish sohasi yoki kasb-hunar ta'limini davom ettirish jarayoniga jalb etilmay qolaverdi.

Hunar-texnika bilim yurtlaridan yangi tipdagi ta'lim muassasalariga o'tish ko'proq og'izda bo'lib, amalda esa ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanmadi. Ularda ta'lim eskirib qolgan moddiy-texnika va o'quv-uslubiy baza negizida tashkil etildi.

Mazku o'quv yurtlarida pedagog kadrlar safi tegishli qayta tayyorgarlikdan o'tmagan o'qituvchilar bilan to'ldirilib borildi. Ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning o'rtacha yoshi ulg'ayib bordi. Respublika oliy o'quv yurtlarida 40 ga to'lmagan fan doktorlari bu boradagi umumiy ko'rsatkichning 0.9% i, 50 va undan katta yoshdagilar esa 79,0% ni tashkil etishi aniqlandi.

Fan doktori ilmiy darajasida tasdiqlanganlarning o'rtacha yoshi 50 da bo'lsa, fan nomzodlarining o'rtacha yoshi 36 yoshda ekanligi ma'lum bo'ldi.

Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning maqsadi qilib belgilanadi. Ya'ni ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdan iboratdir.<sup>1</sup>

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

1. Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subekti va obekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarining istemolchisi va ularni amalga oshiruvchidir.

Shaxs uzluksiz ta'lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o'zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek, o'zida ijtimoiy ta'sirlar yordamida ma'naviy – axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi.

---

<sup>1</sup> Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Oliy ta'lim: me'oriy hujjatlar to'plami. – Toshkent: Sharq nashriyat – manbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bo'sh ta'xiriya. 2001. – B. 25.

Shaxsda o'zlashtirilgan bilim, faoliyat ko'nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi. Yuksak ma'naviy – axloqiy va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lish uchun shaxs o'z oldiga muayyan maqsadni qo'ya olishi hamda unga erishish yo'lida tinimsiz izlanishi, o'qib – o'rganishi lozim. Shundagina u ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo'lib shakllanadi.

O'z-o'zini anglash tuyg'usiga ega bo'lish, ta'lim sohasidagi xizmatlardan to'laonli, samarali foydalana olish, ilmiy va kasbiy bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishish shaxsga etuk mutaxassis bo'la olish uchun poydevor yaratadi. Inson kamoloti, eng avvalo uning o'ziga bog'liqdir. Shu bois milliy dasturda shaxs va uning kamolotini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

“Ta'lim xizmatlarining iste'molchisi sifatida shaxsga davlat ta'lim olish va kasb-hunar tayyorgarligidan o'tish kafolotlanadi. Ta'lim olish jarayonida shaxs davlat ta'lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

Shaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi va o'z bilimi hamda tajribasini o'rgatishda ishtirok etadi”.<sup>1</sup>

2. Davlat va jamiyat ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir.

Shaxs kamoloti nafaqat o'zi uchun, balki davlat va jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, fuqarolari yuksak ma'naviyatga ega jamiyat har tomonlama taraqqiy eta oladi.

Shaxs va davlat (jamiyat) o'rtasidagi aloqa ikki tomonlama xususiyatga ega. Shu bois har qanday davlat (jamiyat) o'z fuqarolarning yashashi, mehnat qilishi, iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarishi, uni namoyon eta olishi uchun etarli darajada shart-sharoit yaratib bera olishi lozim. Respublika ta'lim tizimida davlat va jamiyat shaxsning har tomonlama shakllanishi, o'zligini namoyon eta olishi

---

<sup>1</sup> Кадрлар тайёрлаш миллий дастури // Олий таълим: меъёрий ҳужжатлар тўплами. – Тошкент: Шарк нашриёт – манбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. 2001. – Б. 30.

uchun etarli darajada shart-sharoit yaratib berish mas'uliyatini o'z zimmasiga oluvchi subekt sifatida namoyon bo'ladi.

Davlat va jamiyat ta'lim muassasalarining yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash yo'lidagi faoliyatini ham uyg'unlashtiradi hamda quyidagilarga kafolat beradi:

-fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va o'z malakasini oshirish huquqlarning ro'yobga chiqarilishiga;

-majburiy umumiy o'rta ta'lim hamda akademik lisey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olish yo'nalishini tanlash huquqi asosida majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini olishga;

-davlat grantlari yoki pulli – shartnomaviy asosda oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni olish huquqiga;

-davlat ta'lim muassasalarini mablag' bilan ta'minlashga;

-ta'lim oluvchilarning o'qishi, turmushi va dam olishi uchun shart – sharoitlar yaratish borasidagi vazifalarning hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga;

-ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy jihatdan qo'llab – quvvatlashga;

-sog'liq va rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning ta'lim olishiga.<sup>1</sup>

3. Uzluksiz ta'lim malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlari, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy – texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo'lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy bosh shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadval tayyorlashi uchun zarur shart – sharoitlarni yaratadi.<sup>2</sup>

Uzluksiz ta'limni tashkil etish muayyan tamoyillarga asoslanadi. Jumladan:

---

<sup>1</sup> Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami. – Toshkent: Shark nashriyat – manbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bo'sh ta'xiriya. 2001. – B. 30-31.

<sup>2</sup> Usha manba. – B. 31.

-ta'limning ustuvorligi;

-ta'limning demokratlashuvi;

-ta'limning insonparvarlashuvi;

-ta'limning ijtimoiylashuvi;

-ta'limning milliy yo'naltirilganligi;

-ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;

-iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart – sharoitlar yaratish.<sup>1</sup>

Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlaridan biri sifatida fan: “ta'lim mazmunini tubdan yangilashda: ta'lim standartlari, ta'lim dasturlari, o'quv darsliklari va qo'llanmalar tayyorlashda, ilmiy-metodik ta'minotni amalga oshirishda bevosita va bilvosita ishtirok etadi”.<sup>2</sup>

Ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ijtimoiy extiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy- texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

“Ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo'nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, ta'limning zamonaviy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish pirovard natijasida kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baho beradi”.<sup>3</sup>

“Ishlab chiqarish muassis, homiy va boshqa sifatlarda alohida mutaxassislarni tayyorlashni, guruhlarni va o'quv yurtlarini moliyalash jarayonida ishtirok etib, mutaxassislarning kasbiy rivojlanishi va shaxsiy faolligini rag'batlantiradi, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab – quvvatlashda bevosita ishtirok etadi”.<sup>4</sup>

---

<sup>1</sup> Кадрлар тайёрлаш миллий дастури // Олий таълим: меъёрий ҳужжатлар тўплами. – Тошкент: Шарк нашриёт – манбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. 2001. – Б. 31-32.

<sup>2</sup> Ўша манба – Б. 171.

<sup>3</sup> Кадрлар тайёрлаш миллий дастури // Олий таълим: меъёрий ҳужжатлар тўплами. – Тошкент: Шарк нашриёт – манбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. 2001. – Б. 42.

<sup>4</sup> Баркамол авлод орзуси // Тузувчилар Ш.Курбонов, Ҳ.Саидов, Р.Аҳлиддинов. – Тошкент: Шарк нашриёти – манбаа концерни Бош таҳририяти, 1999. – Б. 173-174.

Avvalalari ishlab chiqarish tayyor kadrlar kuchi va salohiyatidan foydalanuvchi is'temolchi sifatidagina faoliyat olib borgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu faoliyatning mazmuni tubdan o'zgaradi. Endilikda ishlab chiqarish kadrlarni tayyorlash sifati va saviyasiga nisbatan o'z talablarini qo'ya oladi. Shu bilan birga sifatli hamda yuksak saviyali mutaxassisni tayyorlab etishtirish yo'lida uzluksiz ta'lim hamda fan tarmoqlarining moliyaviy, moddiy – texnik jihatdan qo'llab – quvvatlash majbariyatini o'z zimmasiga oladi. Shu asosida kadrlar tayyorlash tizimining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Milliy model Konsepsiyasining mazmuni o'zbek xalqining milliy turmush tarzi va ma'naviy – axloqiy an'analari bilan hamnafasdir. Zero, xalq orasida qadimdan “ma'rifatli inson” tushunchasi qo'llanib kelingan bo'lib, u o'zida keng ma'noni ifoda etadi. Bilim olishga intilish, ma'rifatli bo'lish o'zbek xalqi, millatining ruhiyatida ustivor o'rin tutuvchi omil sanaladi. Ma'rifatchilik – faqatgina bilim va malakaga ega bo'lish emas, ayni paytda chuqur ma'naviy axloq hamdir. Bilimli, komil inson qiyofasida ana shunday xislatlarga ega shaxslar namoyon bo'ladi.

Shuning uchun ham kadrlar tayyorlash milliy modelining butun mohiyati o'zbek xalqining milliy tarixi va hayot tarzi bilan bog'lanib ketgan.

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'ymoqda. Chunonchi, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: “Tarbiyachi – ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql – idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro sifatida etishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak”.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Буюк келажегимизнинг хукукий кафолоти. – Тошкент, Шарқ нашриёти – матбаа концерни Бош тахририяти, 1993. – Б. 27-28.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o'qituvchisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglashiladi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur?

O'qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlariga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 5 – moddasi 3–bandiga muvofiq ta'lim muassasalarida sudlangan shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishlariga yo'l qo'yilmaydi.

O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

1. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohatlar mohiyatini chuqur anglab etishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi lozim.

2. Zamonaviy o'qituvchining ilm – fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

3. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi lozim.

4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta'lim – tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. O'qituvchi ta'lim – tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l – oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalari chuqur o'zlashtirib olishga erishishlari lozim.

8. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak:

a) nutqning to'g'riligi;

b) nutqning aniqligi;

v) nutqning ifodaviyligi;

g) nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan xoli bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarning noo'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlardan holi bo'lishi, o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak;

d) nutqning ravonligi;

j) nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqolalar, matallar va ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish).

9. O'qituvchi kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta'lim – tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishini o'zlashtirishga erishishi lozim.

10. O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

Uzluksiz ta'lim davlat ta'lim standartlarini, malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlari, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, uni o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi hamda bola olti-etti yoshga etguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim to'qqiz yillik majburiy xarakterdagi umumiy ta'lim hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidan iborat. Umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich ta'limni ham qamrab oladi.

Akademik lisey o'quvchilarining imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir.

Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriyat hamda magistratura) tashkil etilib, mutaxassislar yo'nalishlari bo'yicha xalq xo'jaligining turli sohalariga oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi. Oliy ta'lim muassasalariga o'quvchilar qabul qilish davlat grantlari negizida va shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Bakalavriyat – mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizidagi ta'lim bo'lib, magistaturadagi tahsil yakuniy klassifikasion davlat attestasiyasiga muvofiq olib boriladi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan extiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta'lim-kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida aspirantura, ad'yunktura va doktoranturada ta'lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladi.



## **1.2. SHARQ VA G'ARB MUTAFAKKIRLARINING TA'LIMOTLARIDA SHAXS KAMOLATIGA PEDAGOGNING O'RNI ASOSLANGANLIGI**

Pedagogik faoliyatning paydo bo'lishi insoniyat tarixining kadim zamonlariga borib takaladi. Bu kasb tarbiyachilik faoliyatining tarkibiy kismi sifatida vujudga kelgan. Ma'lumki, umumiy ta'lim maktablarda, kasb-xunar kollej va akademik liseylarda ta'lim-tarbiya beruvchi yoshlarni xayotga mexnatga tayyorlovchi kishilarni *o'qituvchi, muallim, pedagog, ustoz* deb yuritiladi. O'qituvchilik kasbi eng kadimiy kasblardan xisoblanib pedagogik mahoratning paydo bo'lishi xam kishilik jamiyatida o'qitishning paydo bo'lishi, ya'ni insonlar tuplagan tajribalar: yurish-to'rish, xatti-xarakterlarining, mexnat sohasidagi dastlabki tajribalarni, urf-odatlarini akliy, ahloqiy, iloxiy bilimlarni yoshlarga o'rgatish: yozuv ixtiro kilingach, o'qish, yozishni o'rgatish, u tashkil ztilgan dastlabki maktablarning paydo bo'lishi bilan o'zviy bog'liq.

Odamlar to'plagan turmush tajribasini yoshlarga o'rgatish. ularni xayotga, mexnat faoliyatiga tayyorlash xztiyoji natijasida kadim zamonlardayok ta'lim va tarbiya mustakil ijtimoiy faoliyat sifatida paydo buldi.

*Iloxiy ta'limotga ko'ra tarbiya bu* -o'zligin anglash, o'z -o'zini boshkarish, tevarak atrofdagi olamni bilib olish yer yuzida va jannatda yashash uchun xozirlik ko'rish. Tangri dargoxiga intilishdan iborat. Dinlar paydo bulgach, diniy tarbiya kutlug kitoblardagi g'oyalar asosida ota-onalar yoki maxsus tayerlangan kishilar tomonidan amalga oshirilgan.

Mashxur chex pedagogi Ya.A.Komenskiy «Buyuk didaktika» asarida ko'rsatishicha, kadim zamonlarda ota-onalar, odatda o'z bolalarini oilada o'zlari tarbiyalaganlar. Lyokin ota -onalar xam usha davrda bolalarga xar xil tarbiya berishgan, bu albatta ota -onalarni talablaridan kelib chikilgan.

Bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ba'zi ota -onalarda tajriba yetarli bo'lgan bo'lsa-da, ko'pchiliklarida yetarli bilim, kunikma, malaka yetishmagan. Ba'zan ota -onalar farzandlari tarbiyasi uchun kerakli vakt ajratmaganlar. Shu sababdan ko'p

oilalar, o'z bolalarini bilimli, ogir tabiatli, tajribali maxsus kishilarga berib o'qitishgan.

Yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi bunday kishilarni **pedagoglar** deb atashganlar. Dastlabki ta'lim -tarbiya berishda ancha murakkab vaziyatlarda bo'lishgan. Buning asosiy sababi ta'lim -tarbiya bilan shug'ullanuvchilarda pedagogik mahorat yetishmagan. O'qituvchilik kasb sifatida vujudga kelishi bilan pedagogik mahorat asoslari tarakkiy zta boshladi. Bu kasb zgalari asta -syokin bilan ta'lim -tarbiya sohasida mahorat sirlarini zgallay boshladi.

Buyuk mutafakkirlar fikricha zng kadimgi maktablar, gimnaziyalar Sharq maktablarida jumladan, Misrda, Isroilda ochilganligini ta'kidlaydi. Ammo keyingi manbalarni, tadqiqotlarni guvox berishicha xususan, Tyoshiktosh g'oridan Fargona vodiysidagi Selungur g'oridan Zarautsoy yodg'orliklaridan topilgan manbalardan ko'rinadiki, zramizdan oldingi yuz ming yillar oldin xam Markaziy Osiyoda odamlar yashaganligidan maktab, ta'lim -tarbiya maskanlari, katta-katta ko'rgonlar bo'lganligidan dalolat beradi. Yukoridagi manbalardan kelib chikib aytishimiz mumkinki o'qituvchilik kasbining pedagogik mahorat komponentlarini bizning yurtimizdan kelib chikkan degan fikr tug'iladi. Chunki yuz ming yillar avval odamlar yashagan davrda xam ta'lim-tarbiya ishlari bilan shug'ullanuvchi kishilar bo'lib, nazariy va amaliy jixatdan yetarli bilimga zga bulmasa-da, bolalarga oddiy ilmlarni berishgan.

Bizning xalqimiz, xususan, turkiy xalqlar kadim zamondayok o'z yozuviga zga bo'lgan.Ota-bobolarimiz o'tmishda uygur, sugd, xorazm yezuvlaridan foydalanganlar, sung arab alifbosi kabul kilindi. Arab yezuviga asoslangan o'zbek alifbosiga ming yildan ko'prok muddatda amal kilindi. O'zbyokistonda 1929 yilda lotin, 1939 yilda rus alifbosiga utildi. 1993 yilda O'zbyokistonda lotin yezuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosiga utish haqida karor chikardi.

Zardushtiylik ta'limotining mukaddas kitobi «Avesto» da Sharq xalqlarining ahloqiy tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.Bu ta'limotning asoschisi Spitama Zardusht zramizdan oldingi VI asrda yashagan. Ko'plab tadqiqotchilarning fikricha zardushtiylik chorvachilik va dexkonchilik bilan

shug'ullanadigan xalqlar dini bo'lib, Xorazm va Sugdiyenda shakllangan VII asrda Osiyoni arablar tomonidan utkazilgan zulmdan sung zardushtiylikning ta'siri ancha kamaidi.

«Avesto» ning pedagogik kimmati shundaki, u ko'p asrlar davomida yoshlarga ilmu ma'rifatni o'rgatish, axlok odob, fazilatlarini tarbiyalashda dasturamal vazifasini bajargan. «Xar bir kishini shunday tarbiyalash zarurki, -deyiladi «Avesto» da -u avvalo yaxshi o'qishni va sungra yezishni o'rganib, yuksak pogonalarga kutarilsin».

Bolalarga beriladigan ta'lim va tarbiya quyidagilarni o'z ichiga oladi: diniy va ahloqiy tarbiya, jismoniy tarbiya o'qish va yezishga o'rgatish. Bu ta'limotga ko'ra diniy tarbiya yetti yoshdan boshlangan bo'lib, darsda ko'rsatilgan ko'rollardan ximoya kilish va suxbat usullaridan foydalanib utilgan materialni shovkinsiz takrorlash talab kilinar edi.

Asosiy z'tibor bolalarni mexnatsevarlik va kasb -xunar kunikmalarini shakllantirishga karatilgan. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra bolalarda byosh yoshlarida bolagatga yetib jismoniy simantik, ma'naviy soflik haqida gamxurlik kilish, tozalikka rioYa kilinish talab kilinar edi Ta'limotga ko'ra xayvonlarni kaltaklash kiynash gunox xisoblangan. Xullas, zardushtiylik ta'limoti ikki ming yil mobaynida milliy va umuminsoniy kadriYatlar karor topishda tarbiyashunoslik xamda pedagogik mahoratning shakllanishida muxim tarixiy manbalardan biri buladi.

Islom ta'limoti buyicha o'tmishda yaratilgan barcha iloxiy ilmlarni insoniy tajriba va fazilatlarini o'zida mujassamlashtirilgan.

Islom ta'limotida o'qituvchi mahorati quyidagi yuksak ahloqiy sifatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

- 1) Sabr kanoatli bo'lish.
- 2) To'g'ri so'zlik va rostguylik.
- 3) Ilmni teran tushuntirish.
- 4) Ilmni o'rganish uchun o'zluksiz davom zttirish.
- 5) Ilm olishda ta'lim tarbiyaga zga yaxshi z'tiborni karatish.

Buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy o'zining pedagogika nazariyasidan o'qituvchi mahoratiga aloxida axamiyat beradi. O'zining «Onalar maktabi» asarida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tarbiyalashda tarbiyachining mahoratiga aloxida axamilt berib, tarbiyachi bu yoshda asosan bolalarga ahloqiy fazilatlar, ya'ni to'g'ri so'zlik, mexr -okibat, ota -onalarni xamda o'zidan katta yoshdagi bolalarni xurmat kilish gamxurlik, mexnatsevarlik, saxiylik kabi tushunchalarni singdirishga z'tibor berish lozimligini uktiradi. «Tillar va xamma fanlarning ochik eshigi» asarida ona tili fanlarini o'qitishda «Fizika», «Astronomiya» asarlarida ushu fanlarni o'qitishda o'ziga xos xususiyatlari xamda unda o'qituvchi mahorati katta o'rin tutishni asoslab berdi.

Sharq mutafakkirlaridan Farobiy, Beruniy, Ibn Sinolar o'z asarlaridan pedagogik mahorat g'oyalariga katta z'tibor berishgan. Ularning fikrlaricha pedagog, mahoratli o'qituvchi quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- 1) Ta'limda oddiydan murakkabga karab borish lozim.
- 2) O'quv materiali bolalarni yosh xususiyatiga xamda xar bir fanning mazmunidan kelib chikishi lozim.
- 3) Ta'lim berishning bolalik davrdan o'zluksiz balogat yoshgacha olib borish maqsadga muvofik buladi.
- 4) O'g'il va qiz bolalarga ta'limda bir xil talablar quyib, tarbiyada o'ziga xos tomonlariga z'tibor qaratish lozim.
- 5) Ta'limda turli xil usul, vositalardan foydalanish lozim.
- 6) Bolalarni diqqatini jalb kila olish lozim.
- 7) Tashkilotchiligi, tashabbuskorligi bilan bolalarga namuna bo'lishi lozim.

Sharq mutafakkirlari fikricha pedagogik mahorat natijasi quyidagilarda namoyen buladi.

1. O'quvchilarni o'zlashtirishlarida.
2. Pedagogik muammolarni yechishda.
3. O'quvchilarga ta'sir ko'rsatish.
4. Nazariy bilimlarni amalda qo'llayolishda

Arab xalifaligida yuz bergan ijtimoiy - siyosiy o'zgarishlar, yagona Islom dinining tarkib topishi madaniy xayetga xam ta'sir ztadi. IX asr Sharq mamlakatlarida boshlangan va madaniy xayetda yuz bergan kutarinkilik ma'naviy hayotda xam o'zgarishlar bo'lishiga olib keladi.

Ana shu ko'tarilish butun Arab xalifaligini, Yaqin va O'rta Sharqni kamrab olganligi uchun xam Sharq Uyg'onishi davri deb ataldi. Bu uyg'onish jarayeni IX asrlardan boshlab XV - XVI asrlargacha davom etdi.

Bu jarayonda arab xalifa xalqlari bilan birga Eron, Kavkaz Shimoliy Afrika, Markaziy Osiyo olimlari xam ishtirok ztdilar. Chunki arab xalifaligida IX asrda vujudga kelgan uyg'onish davri xalifalikni Bogdod, Damashk, Xalab shaxarlarida boshlanib, barcha boshka xalq madaniy xayetga tarkaladi va bu jarayenni boshlab beradi. Buni biz xalifa Xorun ar - Rashid (786 - 833), sung uning ugli al - Ma'un davrida Bogdodda «Baytun xikmat» («Donishmandlik uyi») xozirgi davrda Akademiya ma'nosida tashkil etilganidan xam bilsak buladi. Mazko'r Akademiya 813 - 833 yillarda yanada rivojlangan.

Akademiya koshida rasadxona xam bo'lgani, ya'ni kutubxona ko'rilgan. Bogdoddagi mazkur ilm markazi, o'z navbatida Sharq va g'arbda ilm fanning tarakkiy ztishiga ma'naviy xayetning rivojlanishiga ta'sir ztgan, bu xakda mazko'r «Baytul xikmat» ning ilmiy ishlariga raxbarlik kilgan Al -Xorazmiy xalifa, Al — Ma'unning ilm — fan ravnakiga kay darajada xomiylik kilganini «al — jabr va al - Mukabala xisobi haqida» asarida shunday ta'riflangan: «Ollox Imom al - Ma'unga. Unga meros bo'lib kolgan xalifalik lavozimini in'om kilib, muruvvat ztganligi, bu lavozim libosini keydirib, uni bezaganligini va shu bilan birga unda fanlarga muxabbat va olimlarni o'ziga YAKIN tutishga intilishi (xissiyetini) uyg'otganligini menga jasorat ato kiladi, (chunki u) ularning ostiga ustiga o'z xomiylik kanotini yezib, ularga noaniqbo'lgan narsalarni yeritishga va ular uchun mushkul bo'lgan narsalarni osonlashtirishga yerdamlashadi».

Shuningdek Sharq uyg'onishi davrining paydo bo'lishida asosiy manba kidimgi yaratilgan madaniy yedg'orliklar xam bo'lib, ular xox yunon, xox arab, xox Mavaraunnaxr va Xuroson xalqining eng kadimgi antik davrlar madaniy

yedg'orliklari xam bulsin, Uyg'onish davri madaniyatining yaratilishi va rivojlanishiga asos bo'lib xizmat kiladi.

Zero, agar arablar, Markaziy Osiyoni bosib, bu yerdan ilgari mavjud bo'lgan fan va madaniyat o'choqlarini yo'qotgan bo'lsalar, ko'p o'tmay kadimiy ilmiy an'ana asta—syokin tiklanib natijada ilm — fanning yetuk siymolari yetishib chika boshladi. Yakin Sharqda, jumladan Eron, Zakavkaziya va Movaraunnaxrda savdo alokalarining rivojlanganligi, ilm-fan, xunarmandchilikning tarakkiy etishi moddiy va madaniy alokalarining barchasi umumiy rivojlanishga ta'sir etadi. Bu davrda kishlok xujaligida foydalanadigan yer maydonlari kengaydi, ko'plab sug'oriladigan yerlar ochildi, sug'orish inshootlari tiklandi, yangilari ko'rildi, paxta, zigir, kanop zkilib, ularning tolasidan mato to'qildi. Movaraunnaxr,xusuan Xorazm, O'rganch, Fargona, Samarkand va Buxoro to'qimachilik maxsulotlari, ayniqsaSamarkand va Buxoro shoyisi dunega mashxur bo'lgan.

X asrdan boshlab Mavaraunnaxr va Xuroson mustakil fiodal davlatlari-Toxiriylar, Samoniylar, Koraxoniylar, Gaznaviylar, Saljo'qiylar, Xorazmshoxlar davlatining paydo bo'lishi va xalifalik yemirilishi xam madaniy xayetning orkaga ketishiga emas, balki yanada ravnak topishiga olib keldi.

Bu davrda pul muammosi rivojlandi. Jamiyat siyesiy, ijtimoiy -iktisodiy xayetdagi o'zgarishlar albatta madaniy xaytga o'z ta'siriyi utkazmay kolmaydi.

Bu davrda arab tili ilmiy va aloka tili edi. Maktablarda darslar arab tilida olib borilar edi. Rasmiy xujjatlar, shariat koidalari arab tilida yuritilar edi. Ilmiy asarlar xam arab tilida yezilar edi. X asr urtalariga kelib, fors - tojik tilida xam ish yuritila boshlandi. Ammo yeziladigan xujjatlar, ishlar fors - tojik tilida bo'lsa xam, arab imlosida yezilar edi.

Bu shaxarlardagi maktablarga xatto tevarak-atrofdagi kishloklardan oddiy xalq bolalari xam kelib o'qiganligi manbalarda keltiriladi.

Usha davr Buxoro katga kitob bozori bo'lgan, kitob dukanlarida olim va fozil kishilar uchrashib, ilmiy mulokatlar, munozaralar utgan.

Abu Ali ibn Sino kitob dukonlaridan birida Farobiyning Aristotel «Matafizika» siga yozgan sharxlarini sotib olganligini tarjimai xolida xikoya kiladi.

Buxoro amiri saroyida esa yirik kutubxona mavjud bo'lgan. Bu davrda xind, eron, arab-yunon tillaridan tibbiyot, astranomiya, matematika, mantik, psixologiya, falsafaga oid asarlar tarjima kilinishiga ta'sir etdi.

X asrning ikkinchi yarimidan tashkil topgan Koraxoniylar davlatida ba'zi xonlar o'z saroylarida kutubxonalar tashkil ztdilar. Bu kutubxonalarda arab xatto Garbiy Yevropa olimlarining asarlari xam mavjud edi. Bu davrda turkiy til shakllanib bordi. Yusuf Xos Xojib, Maxmud Koshgariy kabi olimlar jaxon axamiyatiga zga bo'lgan asarlarini yaratadilar.

IX asarda Xorazmda ilm - fan ayniqsatarakkiy etdi. Xorazm shoxi Ma'mun o'z saroyig eng zabardast olimlarni taklif etdi. U tashkil etgan «Baytul xikmat» - Donishmandlar uyi tarixida «Ma'un akademiyasi» deb nom koldirgan. Bu akademiyaning rivoj topishida Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, tarixchi Miskavayx, riyezatchi Abu Nosr ibn Irok, faylasuf Abu Saxl al - Masxiy, tabib Abdulxayr Xammor kabi olimlar ilmiy ijodlar bilan muxim rol o'ynaydilar. Lyokin toj-taxt uchun ko'rash natijasida bu ilm dargoxi o'z faoliyatini tuxtatib, olimlar tarkalib . ketadi.

Mavaraunnarx va Xurosonda mugillar istibdodi davrida «Uyg'onish» davri tanazullga yuz tutdi.

Sharq uyg'onish davri madaniy rivojlanishida ilm - fan shartli ravishda uch yo'nalishda rivojlanganligini ko'ramiz.

**Birinchi yo'nalish** - matematika, tibbiyet yo'nalishidagi fanlar bo'lib, bularga matematika, astranomiya, kime, geografiya, geodeziya, meneralogiya, tibbiyet farmokologiya va boshka shularga turdosh fanlar kiritilib, Muxammad Muso al - Xorazmiy, Axmad Fargoniylar matematikaga oid Zakriye ar - Roziy kime va tibbiyetga oid Ibn Sino, Jurjoniylar tibbiyet va falsafa, Abu Rayxon Beruniy, Ulugbek, Ali Qo'shchilar astranomiya va tibbiyetga oid yirik asarlar yaratdilar.

**Ikkinchi yo'nalish** — ijtimoiy - falsafiy yo'nalish bo'lib, bunda falsafa, texnika, mantiq, fikr ruxshunoslik, notiklik va boshqa sohalar bo'lib, bu sohala Al - Farobiy, Al - Kindiy, Ibn Rusht, Ibn Sino, Zaxiriddin Bahaqiy, Muxammad Narshaxiy va boshkalarini ko'rsatish mumkin.

Lyokin biz ko'rsatib utgan olimlar komusiy olimlar bo'lib, asosiy kashf ztgan ilm sohalarini bilan bir katorda boshka bir necha fanlarga doir xam tadqiqotlar olib borganlar.

**Uchinchi yo'nalish** - ta'lim - ahloqiy yo'nalish bo'lib, bu sohada komusiy olimlar o'z qarashlarini ijtimoiy - falsafiy asarlarida ifodalaydilar.

Shuningdek Sharq uyg'onish davrida sof pedagogik asarlar yaratib, ta'lim - tarbiyada inson takomilining xususiy va umumiy metodlar haqida ulmas ta'limoti bilan nom koldirgan, tarbiyashunos olimlar xam maydonga chikdi.

Pedagogik takt o'qituvchilarning vazmin xulqida nomoyon bo'ladi (yani chidamlilik o'zini tuta bilish). U o'quvchilarga nisbatan bo'lgan ishonchni belgilaydi. Bu ishonch esa o'quvchilarni ishlashga rag'batlantiradi. O'qituvchi o'quvchilar oldida nixoyatda odobli xatti-xarakatlarni qilishi lozim. Noo'rin xarakatlardan saqlanishi lozim aks xolda o'qituvchi xurmati keta boshlaydi. O'qituvchining takti darsning hamma bosqichlarida zarur. Aksincha uquvsizlar xulqini va bilimini baholayotganda bunga etibor berish kerak. Takt o'quvchi javobini eshita olishda ham ifodalanadi. Hamma o'quvchilar ularning javoblarini qunt va xurmat bilan eshita oladigan o'qituvchiga javob berishni yaxshi ko'radilar. Ularning javobini eshitishda jilmayish, imo – ishora bilan maqullash juda muxim.

O'qituvchi darsda faol va talabchan bo'lishi, darsdan tashqari vaqtda esa erkin, dilkash, samimiy bo'lishi kerak. Pedagogik jarayon bir – biriga o'xshamagan turli xildagi vaziyatlardan iboratdir. Bu jarayonda ziddiyatli vaziyatlar ham uchrab turadi. O'qituvchi ushbu vaziyatlardan mavaffaqiyatli chiqishi uchun quyidagi qoidalarga rioya qilmog'i zarur:

- \* avvalambor o'qituvchi ziddiyatni bartaraf etishga harakat qilmog'i zarur,
- \* o'z xatti – harakati bilan sherigiga tasir eta olishi kerak,
- \* suxbatdoshining xatti – harakati va yuz bergan vaziyatga tushinmasdan turib xulosa chiqarishga shoshilmaslik kerak,
- \* vaziyatning keyingi bosqichini tassavvur eta bilishi kerak,
- \* xulosa to'g'ri chiqarilganligiga hammani ishontira bilishi kerak.

O'qituvchining pedagogik nazokati uning muomila va munosabatlarida nomoyon bo'lishi yuqirida aytiladi. Aynan mana shu munosabatlar o'zoro ishonch asosida qurilgan bo'lsa, bunday muloqot ijobiy natija beradi. Dars jarayonida pedagogik takt hamda o'quvchilarning fikr muloxazalari so'ralib ularning qay darajada tushunchaga erishganligi ko'rib chiqiladi va mashxur

pedagoglarning fikrlari bilan davom ettiriladi. A. Makarinkoning aytishicha “ pedagogik mexnat ayni sizning samimiyatingizdan iborat bo’lishi kerak, ammo samimiy bo’lish, bemuloxaza va qo’pol bo’lish” degani emas: “Pedagogik mahorat” buo’quv jarayoning barcha shakllarini eng qulay va samarali xolatda tashkil etish, ularni shaxs komoloti maqsadlari tomon yo’naltirish o’quvchilarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish ularda jamiyat uchun zarur bo’lgan faolyatga moyillik uyg’otishdir.

O’quvchi shaxsiga doim ijobiy axloqiy tasir ko’rsata oladigan kishigina haqiqiy tarbiyachidir. O’zining axloqiy sifatlarini takomillashtirishi kerak. Pedagogik mahorat asoslariga:

- kasbiy pedagogik bilimlar ,
  - insonparvarlikka yonaltirish,
  - pedagogik texnika,
  - kasbiy pedagogik faolyatni amalga oshirish tajribasi,
- pedagog shaxsiga taalluqlidir.

Pedagogik mahoratning ta’lim – tarbiyada tutgan o’rni shunisi bilan xarakterlanadiki bunda o’quvchi o’ziga olishi kerak bo’lgan ta’lim – tarbiyaning asosiy qismlari egallay oladi. O’quvchida bu orqali bilim ko’nikma, malaka shakllanadi va bu sifatlar orqali o’quvchi bevosita va bilvosita talimiy- tarbiyaviy tomondan shakllanib boradi.

Shuningdek o’quvchilarda pedagogik mahorat tushuncha bilan birgalikda pedagogikaning bir qancha soxalari bilan birgalikda tushuntirib boradi. Masalan: pedagogik bilimdonlik . Pedagogik mahoratning asosi pedagogik bilimdonlikdir.

O’qituvchi mahorati uning faolyatida ko’rinadi. O’qituvchi avvalo pedagogik qonunyatlarini va mexonezmlarini to’liq egallagan bo’lishi lozim. Biroq mahorat – bu aloxida qudratdir. Pedagogik mahoratga erishish o’quvchining muayyan shaxsiy sharoitlari bilan amalga oshiriladi.

Pedagogik mahorat - o’zining ilmiy asoslariga ega. 1987 – 1997 yillarda ilmiy yondashuvlar bu favqulotda hodisaga nisbatan xulosa qilishga imkon



berdi. Pedagogik mahorat kasbiy faolyatdagi induividuallikning yorqin ko'rinishi sifatida tushuniladi. Hozirgi davrda tadqiqotlarda pedagogik mahoratning o'ziga xosligi quyidagi shakllarda jamlanadi:

- Pedagogik mahorat.
- Kasbiy bilimdonlik.
- Pedagogik texnologiya.
- Innavatsion faolyat.

Pedagogik bilimdonlik pedagogik soxada mahorat bilan ishlayotgan kishining talim- tarbiya imkoniyat to'plagan barcha tajribalardan ratsionol foydalanish qobilyatini ko'zda tutgan ekan, demak u etarli darajada pedagogik faolyat va munosabatlarning maqsadga muvofiq usullari va shakllarini egallashi lozim. Kasbiy pedagogik bilimdonlikning bosh ko'rsatgichi bu shaxsga yo'nalganlikdir.

Kasbiy pedagogik bilimdonlik asosan to'rtta kompaninti bilan xarakterlanadi.

- shaxsga imonga yo'nalganlik
- pedagogik voqiylikni izchil idrok etish
- fan soxasiga yo'nalganlik
- pedagogik texnologiyalarni egallash.

O'quvchi shaxsini tarbiyalash kamol toptirishda faqat o'quvchilargagina emas, bilim o'qituvchilarga yuksak natijalarga erishishni taminlaydi.

### **2.3. O'QITUVCHI FAOLYATIDA MULOQOT MADANIYATI VA UNING TASHQI QIYOFASI**

Pedagoglarning o'quvchilar bevosita muomilasining maktab o'quvchilarining muomilasiga pedagogik tasir etishning o'ziga xos vosita deb qarash mumkin.

Muomala - axborot jarayonidir. Axborot ikki yo'nalishda boshqarish subektidan ( o'qituvchidan ) boshqarish obektiga ( o'quvchilarga ) boradi va aksincha obektdan subektga boradi. O'qituvchi bolalar bilan o'zaro muomilada bo'lar ekan ular haqida ularning ichki dunyosi haqida g'oyat xilma-xil axborotlarga, malumotlarga ega bo'ladi. O'z nisbatida o'quvchilar ham o'qituvchi bilan muomilada o'zlari uchun zarur bo'lgan muomila ko'nikma va malakalarni egallab takomillashtirib boradi. Demak muloqot jarayonida tomonlar bir-birlarini turli xil sharoit va ko'nikmalarda o'rganib borishadi.

Bolalar bilan bevosita muomilada pedagogga jamoadagi yoki ayrim o'quvchilardagi biron- bir voqiani rivojlanish jarayonida o'rganish zarur bo'lganda, ro'y berayotgan hodisalar va jarayonlarning sabab – oqibat aloqalarini payqab olishda, ularning tug'ilashi, paydo bo'lishi va rivojlanishini kuzatish, bundan tashqari bu hodisalar va jarayonning yanada rivojlanishi to'g'riligining malum darajada oldindan aytib berish kerak bo'lganda ham zarurdir.

Pedagogning boshqa kishilar bilan muomilada bo'lish tajribasi pedagogning o'zi shaxs sifatida qay darajada shakllanganligini uning voqialikni qay darajada idrok etishiga va olingan axborotga baho berishga qodirligini aniqlab beradi. Pedagogning o'quvchilar bilan kundalik muloqoti shunga olib keladiki u o'quvchilarning hatti – harakatlaridagi chuqur mano va haqiqiy sababni turli vaziyatlarda payqab oladi.

O'qituvchilarning o'quvchilar bilan muomilasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib bu muloqotni pedagogik qoidalarga muvofiqlashtirish zarurdir.

Negaki bola o'qituvchidan tashqari ko'pchilik munosabatlarga kirib boradiki buning natijasidagi muloqotlar bolaga turlicha ijobiy salbiy tasirini o'tkazib boradi. Xatto shundan iborat bo'ladiki u malum darajada bu tasirlarni birlashtiradi. Ular o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgatadi, bu tasirlarning ziddiyatli tarkibiy qismiga tuzatishlar kiritadi.

O'qituvchining bolalar bilan muomilasi muvoffaqiyatli bo'lishi ko'p jixatdan unda pedagogik qobilyatning mavjudligiga va pedagogik nazokatni (odobni) egallaganligiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik muomilaning samaradorligini taminlovchi omillar:

1. O'qituvchining kuzatuvchanlik qobilyati, yani vaziyatga to'g'ri boha bera olish, idrok etish, tushuna bilish.
2. Bolalarga bo'lgan samimiy muhabbat, qaerda muhabbat bor bo'lsa o'sha erda muloqot samimiy o'tadi.
3. Muloqotga bo'lgan ijtimoiy extiyojni qiziqishni hisobga olish va yuzaga keltirishga intilish.
4. Xozir javoblik tanqidiy ko'z bilan qarash, sobit qadamlik.
5. O'qituvchining nutqi notiqlik qobilyatining mavjudligi, so'z boyligi.
5. Aktyorlik mahoratini qo'llay bilish.
6. Pedagogik nazokat va odob qoidalariga rioya qilish yani to'g'ri munosabatni o'rnatish.
7. O'zaro ishonch va do'stlik munosabatlarning o'rnatilishi, bunga shunday erishish mumkin, bolalardagi katta yoshdagi do'stga bo'lgan extiyoj juda kuchli.
8. Ba'zi joylarda o'qituvchi eshitmasligi lozim bo'lgan narsalarni eshitmasdan o'tib ketish.
9. Muomilani baqirib va mayda chuyda narsalarga aylantirib yubormaslik.
10. Ba'zan biron narsani tushunmay qolish ham foydali bu o'quvchilarda bo'ladigan kichik kelishmovchiliklarning oldini oladi.
11. Dilkashlik, muloqotga intilish, aloqa o'rnatishga moillik.
12. Norasmiy muloqotdan maktabdan tashqari ham samimiylik muximdir.

O'qituvchi oquvchilar jamoasi bilan yaxshi muomilani o'rnatib bilsa u katta xurmat va mavqiyga ega bo'ladi. O'quvchilar bunday o'qituvchining oldiga tortinmay keladi, u bergan vazifalarni sidqi dildan bajaradi. Yuqoridagilardan shuni xulasa qilib aytish mumkinki turli xil yoshdagi o'quvchilar muloqot madaniyatiga erishish o'qituvchi turli xildagi o'ziga xos vazifalarni bajaradi.

Ular quyidagilar:

\* Quyi sanflarda o'qituvchi tashkilotchi sifatida maydonga chiqadi. Bu yoshdagi o'quvchilarga quvnoq, talabchan, xayrihohlik ko'rsatuvchi, zavqli vaziyatlarni vujudga keltira oladigan tarbiyachilar zarur.

\* O'smir yoshdagi o'quvchilar uchun o'qituvchi raxbardir. Bu erda o'qituvchilar o'quvchilar faolyatiga raxbarlik qiladi, talablar qo'yadi, ko'rsatmalar beradi, murabbiylik qiladi, faolyat uchun qulaylik yaratadi.

\* Katta yoshdagi o'smir o'quvchilarga nisbatan o'qituvchi homiy yoki tarbiyachi vazifasini bajaradi. Bu erdagi munosabatda o'smirlarning katta bo'lishga intilishini hisobga olish zarur. Ularni kattalardek qabul qilmaslik ularda nosamimiylilik soxtalik shakllanadi. Bu esa o'qituvchini ishini qiyinlashtiradi.

\* Yuqori sinf o'quvchilari uchun o'qituvchi maslaxatchidir. Ularni tenglik asosida qabul qilish bilan ularga maslaxat yo'l-yoriq, ko'rsatish katta samara beradi.

“Shunday gapira olish kerakki bolalar sizning gapingizdan irodangizni, madaniyatni, sizni shaxsingizni sezsinlar”. (A.S.Makarenko ).

Demak, ta'lim jarayonini tashkil etishda muloqotning barcha vositalariga, ayniqsa nutqqa etibor berish kerak. Bolalarni ilk yoshdanoq nutq madaniyatiga o'rgatish nutqini o'stirish choralarini ko'rish lozim. Pedagog esa shunday nutq madaniyatiga ega bo'lishi kerakki u avvalo uning faolyatini to'g'ri tashkil etishni taminlasin, bolalarda nutqning o'sishiga imkon bersin. Ta'lim tarbiyaning asosi bu muloqot hisoblanadi. Lekin bu muloqot kundalik turmushimizda

ishlatilayotgan muloqotdan farq qilib, pedagog va o'quvchilar orasidagi muloqotni anglatadi.

***Nutq madaniyati belgilari:***

Nutqning mazmundorligi, teranligi, izchilligi, akustik texnologyaga rioya qilishlik.

Ovozning surati tarqalishi uzatilishi, shiradorligi, xaqqoniyligi, tasirchanligi, mantiqiyligi, ravonligi, ixchamligi.

Nutqning kamunikativ, intiraktiv, persivtiv tarkiblari o'rtasida mustaxkam aloqaning mavjudligi.

To'g'ri va teskari aloqaning vujudga keltirishda uquvchanlik.

Nutqda qanoatli iboralar xissiy kechilmalar jonli mushoxadalar umumlashgan fikrlar umumlashmalar mavxumliklarni ishtiroki ( foydalana bilish).

O'quvchilarni faollashtirishda nutq imkoniyatlaridan muammoli vaziyatlardan maroqli o'yinlardan foydalanish.

Fikrni o'zlashtirish va qabul qilish jarayonida psixologivistik qonunyatlarini, model tuzumidan unumli foydalanish.

Shirinso'zlik o'qituvchining asosiy xislatlaridan biridir.

U shirinso'z bo'lsagina bolalar bilan til topishadi va ular qalbiga yo'l topa biladi. Ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchilarining xatto talab va topshiriqlari ham muloyimlik bilan berilishi kerak. Uning so'zlarida "yasha", "barakalla", "yaxshi", "raxmat" kabi iboralardan ko'praq foydalanishi kerak.

O'qituvchi o'zining yurishi, turishi, tashqi ko'rinishi, kiyinishi, nutq madaniyati bilan barchaga namuna bo'lishi kerak.

O'qituvchi dars jarayonida adabiy tilning fonitik talafuzi lug'oviy so'z yasalishi grammatik va uslubiy miyorlariga o'z nutqini moslashi zarur.

Bulardan birontasidan biroz chetlashgan nutq ham to'g'ri nutq bo'la olmaydi. Insonning nutq ko'rinishi uch ko'rinishda bo'ladi.

1- so'zlash.

2- muloqot.

3- eshitish.

Nutq qobilyati nutq yordamida shuningdek imo-ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobilyatidir.

Bu o'qituvchilik kasbi uchun juda muximdir. O'qituvchi nutqi hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi dars tushuntirayotgan o'quvchi javobini taxlil qilayotgan yoki tanqid qilayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'z gapirayotgan narsaga qiziqqonligi bilan ajralib turadi. Fikrning ifodasi o'quvchilar uchun aniq sodda va tushinarli bo'ladi.

O'qituvchining bayoni o'quvchilar fikri va diqqatini maksimal darajada faollashtirishga qaratiladi. O'qituvchi o'quvchi oldiga savollar qo'yib ularni asta sekin to'g'ri javob berishga undaydi, o'quvchilar diqqatini kuchaytiradi, hamda fikrlashini faollashtiradi. Masalan: "mana bu erga alohida etibor bering", "o'ylab ko'ring" kabi. Shuningdek o'rinli qochiriqlar, engilgina hazil, istexzo nutqni jonlashtirib yuboring va uni o'quvchilar tez o'zlashtiradi.

O'qituvchining nutqi aniq jonli, obrazli, talaffuzi jixatidan erkin, ifodali, xis hayajonli bo'lib, unda sitalistik, grammatik, fonitik, nuqsonlar uchramasligi lozim. Bir xildagi cho'ziq zeriktiradigan nutq o'quvchilarni juda tez charchatadi. Ularni lanj loqayt qilib qo'yadi. Ayrim o'qituvchilar tez gapirishga boshqalari sekin gapirishga moyil bo'ladi. Biroq o'quvchilarning yaxshi o'zlashtirishlari uchun o'rtacha jonli nutq yaxshi natija berishini esdan chiqarmaslik lozim. Shoshqaloqlik saboqni o'zlashtirishga xalaqit beradi va bolalar tez charchab qolishadi. Sekin nutq esa lanjlik va zerikishga olib keladi. Haddan tashqari baqiroq va keskin nutq esa o'quvchini asabini buzadi, toliqtirib qo'yadi. O'qituvchining zaif ovozi tasirsiz bo'lib yomon eshitiladi.

Nihoyat ko'p tarqoqlanadigan so'z bir xildagi imo-ishoralar va harakatlar kishining g'ashiga tegadi. Xulosa qilib aytish mumkinki o'qituvchining nutqi shirali, mazmunli va o'quvchilarga tasiri kuchli bo'lishi kerak. Bundan tashqari pedagog o'z faolyatida nutqdan foydalanib o'quvchilarning ota-onalari bilan uchrashuvlarda o'z notiqlik qobilyatlaridan foydalanadi. Notiqlik ota- onalar

yig'ilishida, turli xil kechalar, ommaviy tadbirlarda (ko'rik tanlov, majlis, anjuman) juda o'rinli bo'ladi. Bunday ommaviy tadbirlar muvaffaqiyatli bo'lishi uchun nutqi faqat madaniyatli emas balki manaviy, mantiqiy qiziqarli va mazmunli bo'lishi shart.

O'qituvchi har bir harakatida qarashida bolalar pedagogning madaniyatining kuchi seziladi.

Hissiy muvozanatni boshqarish:

O'quvchilar oldida chiqish qilish, o'qituvchi muskullarini zo'riqishiga o'ziga ishonqiramaslik qo'rquv ikkilanish kabi xissiyotlarni o'z boshidan kechiradi. Asosan bu endigina pedagogik faollikni boshlayotgan o'qituvchilarda uchraydi. O'quvchilar o'qituvchilarning hamma hatti- harakatini ovozini gapirishini fikrlashini, o'zini tuta bilishini diqqat bilan kuzatadilar. Bularning barchasi o'qituvchidan dars mashg'ulotlariga chiqish qilishga jiddiy tayyorgarlik ko'rishini, o'z ruxiy holatini boshqara olishini talab etadi. Buning uchun o'qituvchi yosh o'qituvchi ruxiy muvozanatni o'zida mujassam etuvchi mashqlarni bajarishi lozim. Bu esa o'z o'rnida pedagogik ijodkorlik sezgisini vujudga keltiradi. Bu holatni yuzaga keltirish uchun darsni o'rganiladigan materialning eng qiziqarli hammani jalb qiladigan mamentlardan boshlash lozim. Dars mashg'ulotlariga kirish oldidan o'zida qo'rqish, hayajon sezayotgan o'qituvchi darsdan oldin maxsus ruxiy mashqlarni bajarishi kerak bo'ladi. Bu o'qituvchi jismoniy va ruxiy zo'riqishni bartaraf etadi. Buning uchun o'qituvchi o'zini engil xis etib quyidagi formula shaklidagi gaplarni takrorlashi lozim:

“Men xotirjamman, men o'zimni yaxshi xis etayabman. Dars mashg'ulotlarini yaxshi olib boraman, o'zimni erkin xis qilayapman. Darsga yaxshi tayyorlanganman. Dars qiziqarli bolalarning hammasini bilaman va ularni ko'rib turibman. Bolalar darsga qiziqib qolishgan. O'zimni yaxshi boshqaraman, kayfiyatim tetik. O'qitish qiziqarli, o'quvchilar meni xurmat qilishadi. Ular meni barcha topshiriqlarimni bajaradilar, menga o'z ishim yoqadi, men o'qituvchiman”.

Ammo bu mashqlardan tezda natija kutib bo'lmaydi, buning uchun tizimli va doimiy shug'ullanish zarur.

Qomati: go'zallik, manoli, tashqi qiyofa, o'qituvchi qomati uning tasirchanligiga yordam beradi. Qomati bukulgan kuchsiz kishi atrofda qilarda kuchli tasurot qoldirmaydi. Oxista odimlash oldinga egilgan bosh, yalqov harakatlanayotgan qo'llar kishining ichki zaifligidan o'ziga ishonmasligidan ishlagisi kelmayotganidan darak beradi.

Yuz harakatlari – mimikasi: mimika yuz muskullari harakati orqali o'z xis tuyg'ulari, sezgilari va qiyofasini ifodalash san'atidir. Ba'zan so'zlarga qaraganda yuz ifodalari va nigox o'quvchilarga kuchliroq ta'sir etadi. Yuz ifodasi nutq harakteriga va belgilari munosabatiga xos bo'lishi lozim. Asosan o'qituvchi yuzi-qat'iy, kuchli ifoda. O'qituvchi yuzi uning tashqi qiyofasi singari o'ziga ishonchni, xayrihohlikni, donolikni, g'azabni, quvonchni, qoniqmaslikni, xayratni, befarqlikni, qiziquvchanlikni, norozilikni kabi ko'rinishlarni o'ylab variantlardan ifodalashi lozim.

Pedagogik maqsadga yo'nalganligi va o'qituvchining tashqi qiyofasi. O'qituvchining tashqi qiyofasi qator estetik talablarga javob bermog'i lozim. O'z tashqi qiyofasiga etiborsizlik bilan qarashi yoki haddan ziyod orastalikka berilishi o'qituvchi uchin mumnik emas. O'qituvchi tashqi qiyofasi o'quvchilarga tasir etishining pedagogik vositasi sifatida qarashi lozim. O'qituvchi mahorati tadqiq qilayotgan olimlarning xulosalariga ko'ra o'qituvchining tashqi qiyofasi uning ichki kuchini o'zini erkin va ishonarli tutayotganini ko'rsatib turadi.

O'qituvchi tashqi qiyofasi manodorligi uning bolalarga qanchalik samimiylik bilan boqishida harakatlarning tabiiy ixchamligida qo'l va yuz harakatlarning manoli va maqsadliligida sinf bo'ylab yurishida o'z aksini topadi. O'qituvchi oziga xaddan ziyod oro berishi, erinchoqlik, harakatlarning notabiiyligi ziddir. O'qituvchining har bir hatti - harakati o'ziga ishonchdan belgi beradi. Hatto uning sinfga kirib kelishi nigohi, salomlashishi, stulni siljitishi va



o'tirishi, sinfda harakatlanishi - bularning barchasi o'qituvchining ichki kuchi belgilaridir.

Yuz harakatlari tasirchanligini taminlovchi detallar ko'z va qoshlardir. Baland ko'tarilgan qosh xayratni, kerilgan qosh diqqatni, harakatsiz qosh xotirjamlikni, befarqlikni, doimiy harakatdagi qosh xayratni ifodalaydi.

Pantomimika – bu gavda, qo'l va oyoq harakatlaridir. Bular nutqning eng muxim joylarini ajratib ko'rsarishda va ovoz hosil qilishda yordam beradi. Diqqat bilan dars berayotgan tushuntirayotgan o'qituvchini kuzating. Uning boshi bo'yini qo'llari va butun gavdasi harakatda. Qo'llar harakati o'quvchilarning qabul qilishiga yordam berishi yoki halok qilishi mumkin. O'qituvchi qo'lidagi ma'lum predmetni (ruchka, daftar)muntazam harakatni tenglovchi e'tiborini chalg'itadi, ongsiz ravishdagi bosh qashish, burun artish, quloqlarni ushlash, o'quvchilarni g'ashini keltiradi.

O'qituvchining kiyinishi - o'quvchilarda tozalikni tartiblilikni va ozodalikni talab qilib bo'lmaydi, agar o'qituvchi dazmollanmagan kiyimlarda, sochi taralmagan holda turgan bo'lsa.

O'qituvchining kiyinishiga asosiy talab - jiddiylik, ziyolilik, ortiqcha narsalarning yo'qligi, yaxshidir. Sochini turlicha tarashi ko'ylakning noananaviy tizimda tikilishi, soch rangining tez –tez o'zgarishi o'quvchilar diqqatini tortadi. O'quvchilar o'z raxbarlarida ham tashqi ham ichki go'zallik uyg'unligini va o'qituvchining estetik jihatdan namuna bo'la oladiganini qadrlaydi va sevadi. O'qituvchi mana shularga intilmog'i lozim.

Demak o'qituvchi nimalarga etibor bermog'i lozim?

a) Qomatga: qomat egilmaganligi? Qomat turishi tabiiymi? Qanday turibdi? Qanday o'tiribdi? Qanday turayapti?

b) Mimikada: suxbatdoshiga qaray olayaptimi? Sinfgachi? Yuzidan o'ziga ishonch sezilayaptimi? U samimiymi?

v) Pantomimika: qo'l harakatlari chegaralanganmi? Qanchalik majburiy harakatlarni amalga oshirmoqda? Harakatlar haddan ziyod emasmi? Sinf bo'ylab qanday harakatlanmoqda? Kitobni qanday varoqlamoqda?

O'qituvchining pedagogik texnikasi uning hatti – harakatida, yurish – turishida namoyon bo'ladi.

## II BOB BO`YICHA XULOSALAR

1. Bugungi kun pedagogikasi asosli ravishda shuni takidlaydiki, ta`lim-tarbiya sifati avvalambor dars sifatiga bog`liq. Faqat dars mashg`ulotlari pedagogik pedagogik jarayonni oqimini boshqarib turadi. Kim moxir o`qituvchi bo`lishni hohlamaydi? Qaysi o`qituvchi darslarni samarali qiziqarli, mazmunli bo`lishini, o`quvchilar uning ortidan ergashishini hohlamaydi? Buning uchun ko`p yillik "mehnat faolyati"ga ega bo`lish kamlik qiladi. Buning uchun dars metodikasi va texnikasini mukammal o`zlashtirgan bo`lishi lozimligi ko`rsatilgan.

2. Pedagog texnikasi o`qiyuvchiga o`quv faolyatida ham o`qitishdan tashqari faolyatda ham zarur bo`lgan umumiy pedagogik malakalar yig`indisidan iborat bo`ladi. Avvalo pedagogik texnikaning tarkibiy qismi sifatida o`quvchining nutq malakalarini savodini o`z nutqini chiroyli va tushunarli qilib bayon etish o`z fikr va xis tuyg`ularining so`zda aniq ifodalash malakalarini aytib o`tish mumkinligi maqsadga muvofiq deb topildi.

3. Pedagoglarning o`quvchilar bevosita muomilasining maktab o`quvchilarining muomilasiga pedagogik tasir etishning o`ziga xos vosita deb qarash mumkin. Muomala ~ axborot jarayonidir. Axborot ikki yo`nalishda boshqarish subektidan ( o`qituvchidan ) boshqarish obektiga ( o`quvchilarga ) boradi va aksincha obektdan subektga boradi. O`qituvchi bolalar bilan o`zaro muomilada bo`lar ekan ular haqida ularning ichki dunyosi haqida g`oyat xilma-xil axborotlarga, malumotlarga ega bo`ladi. Muloqot jarayonida tomonlar bir-birlarini turli xil sharoit va ko`nikmalarda o`rganib borishadi.

## **TAJRIBA - SINOV NATIJALARI**

Ta`lim tarbiya ko`laminin g kengayib borishi va zamonaviylashuvi bo`lajak pedagogni tayyorlashga da`vat etadi.

Pedagogik mahorat, bilim va yuksak rivojlangan ko`nikmalarning mustahkam birligidan iborat. Bo`lajak o`qituvchi pedagogik mahoratga ega bo`lishi, ilg`or tajribalar hamda yangi pedagogik texnologiyani edallashi enteraktiv metodlarni qo`llash ko`nikmasiga ega bo`lishi zarur.

Tajriba-sinovda ta`lim- tarbiya jarayonini o`rganish bo`yicha topshiriqlar xilma-xil pedagogik mashqlar, anketa, test savollari, shuningdek, pedagogikaga faninig deyarli barcha mavzularni o`rganish bilan bog`liq. Bundan maqsad pedagogik jarayonning o`ziga xos xususiyatlari, uning mantiqi, o`qituvchi va o`quvchilar faoliyatining o`ziga xos tomonlari va munosabatlari bilan tanishtirishdir. Bu topshiriq va masalalarning bajarilishi, turli-tuman hodisalar orasidan pedagogik xodisani ajratib olishni o`rganishga yordam beradi va bo`lajak pedagogning - eng muhim qobiliyati-pedagogik jihatning shakllanishiga olib keladi.

Pedagogik topshiriqlar pedagogik hodisalarning murakkab olamiga yanada teran nazar tashlashga, ulardan murakkab aloqadorlik va munosabatlarini aniqlab, vaqt nihoyatda tig`iz bo`lgan vaziyatlarda ham qaror qabul qilishga, pedagogik tafakkur fazilatlarini egallab olishga o`rgatadi.

## **TAJRIBA SINOV ISHLARI.**

Berilayotgan topshiriq va masalalarda asosan maktab amaliyoti nazarda tutilgan. Tajriba-sinovni Jizzax shaxriga qarashli ....-maktab pedagogik jamoasi o`rtasida olib bordim. Amaliyot davrida maktab amaliyotchi-psixologi Qoraboeva Matluba opa bilan birgalikda pedagogik jamoaning pedagogik mahorati, pedagogik faoliyati, pedagogik qobiliyatini turli pedagogik topshiriqlar, test savollari yordamida o`rgandik.

Ushbu so`rovnomalar II guruhda olib borildi. So`rovnoma olish davomida o`qituvchilar o`zlarining pedagogik mahorati va pedagogik qobiliyati qay darajada shakllanganligi foiz hisobida ko`rsatildi.

I guruh o`qituvchilari maktabning pedagogik stajiga 10-15 yil bo`lgan o`qituvchilar, II guruh esa 5-7 yil bo`lgan o`qituvchilar ishtirok etishdi. Ular quyidagi natijalarni berdi:

### **1-Topshiriq. PEDAGOGIK FA[OLIYATDA O`QITUVCHI QOBILYATI VA MAHORATINI O`RGANISH**

#### **1. O`qituvchi qobiliyati deganda nimani tushunasiz?**

- a) O`quvchining bilish qobiliyati deganda nimani tushunasiz?
- b) Qaysi fan o`qituvchingizda tushuntira olish qobiliyati kuchli?
- d) Kuzatuvchanlik qobiliyati nima uchun kerak?
- e) Nutq qobiliyati va madaniyati o`qituvchi qurolimi?
- f) Oqituvchi tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo`lishi shartmi?
- g) O`qituvchidagi kelajakni ko`ra olish qobiliyatining afzalligini ifodalang.
- h) O`quvchining diqqatini taqsimlay olish qobiliyati qachon zarur?

#### **2. Pedagogik mahorat nima?**

- a) O`qituvchi pedagogik mahoratli bo`lishi uchun nimalarni bilishi kerak?
- b) Pedagogik mahoratga ega bo`lish uchun pedagogik qobiliyatlar kertakmi?
- d) Sinf raxbarining pedagogik mahorati jamoa bilan ishlashda qo`l keladimi?

e) Pedagogik mahoratni yangi pedagogik texnologiya asosida boyitish mumkinmi?

f) O`qituvchi necha yilda malaka oshirish kurslariga boradi? Nima uchun?

**2-topshiriq. O`qituvchilar ta`lim-tarbiya ishi va pedagogik qobiliyati?**

**Pedagogi mahorati darajasiga baho berish.**

<b>№</b>	<b>Savol</b>	<b>Ha</b>	<b>Aytish qiyin</b>	<b>Yo`q</b>
1.	Mazkur o`qituvchini o`z ishining ustasi deb bo`ladimi			
2.	O`quvchilar undan yordam va maslahatlar olib tez-tez murojaat qiladilarmi?			
3.	Har anday materialni ham o`quvchilarga qiziqarli tarzda etkaza oladimi?			
4.	U darsda rejalashtirilgan o`quv ishga ulguradimi?			
5.	Mavzuni har xil tomonlariga vaqt va kuchlarni taqsimlashda qiynaladimi?			
6.	Pedagogik qobiliyatga egami?			
7.	U o`zining to`la mustaqil o`quv tarbiyaviy ish uslubiga egami?			
8.	U o`z darslarida ijodiy muhit va muammoli vaziyat yaratdimi?			
9.	Mazkur o`qituvchi o`z darslarida munozarani rag`batlantiradimi?			
10	U darslarda o`quvchilar savollarini qondiradimi?			

11	Yangi pedagogik texnologiyadan foydalanadimi?			
12.	Pedagogik innovasiyon, integratsiya uslublarini qo`llaydimi?			

<b>№</b>	<b>Pedagogik stajiga 5-15 yil bo`lgan</b>	<b>Izoh</b>	<b>Pedagogik stajiga 2-5 yil bo`lgan</b>	<b>Izoh</b>
	98 %	Shu yillar davomida barcha pedagogik qobiliyatini pedagogik faoliyat davomida qo`llab ulgurgan	60 %	Shu yillar davomida barcha pedagogik qobiliyatini pedagogik faoliyat davomida qo`llashga ulgurmagan

## XULOSA

Mustaqillik yillarida Respublika uzluksiz ta'lim tizimining muhim bosqichlaridan biri – ta'limi muassasalari, shu jumladan, umumiy o'rta ta'limda o'quv-tarbiya ishlarining bugungi kun talablari darajasida tashkil etish davlat siyosatining ustuvor masalalaridan biri ekanligiga alohida urg'u berilgan.

O'qituvchi pedagogik jarayonda asosiy etakchi o'rin tutadi. Shu sababdan pedagogik o'zaro ta'sir ko'rsatishda o'qituvchining hissiy holatini boshqarish o'zida ijodiy jiddiylik darajasini va umidbaxshlik, hayrixohlik kayfiyatini saqlash o'zining hissiy dam olishida muhim rol' o'ynaydi. Bu jihatlar pedagogning kasbiy mahoratini, o'z-o'zini boshqarish va nazorat qilishni ta'minlaydi. Yosh avlodni tarbiyalash va ularga ta'lim berish pedagoglar zimmasiga yuklatilgan ekan, demak o'qituvchi, avvalambor, sog'lom fikrlaydigan, ahloqiy sifatlarga ega bo'lgan va yuksak muomala madaniyati mujassam bo'lgan shaxs bo'lmog'i zarur.

Uzluksiz ta'limda pedagogik faoliyat nazariyasi va metodikasining ishlab chiqarilganligi shunga olib keladiki, o'qituvchi bolalar bilan, pedagogik jamoa bilan qanday qilib til topish o'rtasidagi munosabatlarning haqiqiy manzarasiga erishmoq kerak. Lug'atlarda mohirlik - bu insonning hayotiy tajriba va o'zlashtirilgan bilimlari asosida aniq va ongli ravishda amaliy va nazariy ishlarni tez va samarali bajarishga tayyor bo'lishi, o'z ishiga mahorat bilan yondoshish e'tirof etiladi.

*O'qituvchi esa ikki tomonlama mahorat egasi bo'lishi lozim. Birinchidan, har bir shaxsning psixologiyasidan kelib chiqib, uni nimaga o'rgatish lozim ekanligini chuqur anglaydigan inson bo'lsa, ikkinchidan, ushbu shaxsga ta'lim-tarbiya berish yo'llarini biladigan shaxsdir.*

Demak, uzluksiz ta'limda pedagogik faoliyatda o'qituvchining mohirligi bilan mahorati hamohangdir. O'qituvchining o'z ishiga mohirligi uning ijodiy imkoniyatlari, extiyojlari hamda qobiliyatlarini chegara bilmaydigan rivojlanishi sifatidagi xususiyatidir. O'qituvchining mahorati uning faoliyati jarayonida namoyon buladi.



Pedagogik faoliyatda o`qituvchining mahorati uning samarali natijalarga erishishi, pedagogik faoliyatining yuqori darajasi sifatida tushuniladi. O`qituvchining pedagogik mahorati - bu ta`lim-tarbiya san`atining yuqori va doimiy ravishda rivojlanib, takomillashib boradigan san`atidir. Mahorat turli xil pedagogik masalalarni samarali echishda, shuningdek, o`quv-tarbiyaviy ishlarni talab darajasida tashkil etish jarayonida namoyon buladi. Lekin bu mahoratning mazmuni ushbu faoliyatlarni vujudga keltiradigan o`qituvchining shaxsiy sifatlari bilan bogliq. Demak, pedagogik mahoratning mazmunini chuqur anglash uchun dastavval pedagogik faoliyat nima ekanligini tushunib olmog`imiz lozim.

Har qanday faoliyat singari pedagogik faoliyat ham o`z komponentlariga ega. Bular: maqsad, obekt, subekt va vosita.

Pedagogik faoliyatning **maqsadi** asosan jamiyat tomonidan belgilanadi, ya`ni uning faoliyati jamiyatning kelajagi bo`lmish yoshlarni har tomonlama etuk shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilmog`i lozim.

Pedagogik faoliyatning **subekti** - bu o`qituvchi, ota-onalar va jamoadir. O`qituvchi shaxsi, uning bilim va ko`nikmalari tarbiyalanuvchilarga ma`naviy-ahlokiy ta`sir ko`rsatadi. Bu esa o`qituvchidan o`zini ma`naviy jixatdan boyitib borishini talab etadi.

Pedagogik mahoratning **obekti** - bu insondir. Inson jamiyatning faol ishtirokchisi bo`lib ularning har biri o`ziga xos xususiyatga ega va bu o`qituvchidan har bir shaxsga o`ziga xos yondoshishni talab etadi. Shuningdek, jamiyat rivoji bilan inson ongi va tafakkuri ham o`zgarib boradi. U esa o`qituvchidan muntazam ijodiy izlanishni talab etadi.

O`qituvchining asosiy **tarbiya quroli** esa uning mehnati, muloqot madaniyati, o`qish, o`yin kabi turli xil faoliyatidir.

## TAVSIYALAR

Uzluksiz ta'limda o'qituvchi pedagogik faoliyatning yuqoridagi komponentlaridan qanday foydalanishni, ya'ni ta'lim-tarbiya maqsadini to'g'ri qo'yib, subekt va obektni yangi pedagogik texnologiyalar asosida faollashtiradi hamda shunga mos vositalarni turri tanlay va kullay oladi. Aynan shundagina o'qituvchining kasbiy mahorati yuzaga chiqadi. Demak, o'qituvchining mahorati uning kasbiy pedagogik faoliyatini samarali tashkil etishiga doir shaxsiy sifatlar majmui bilan belgilanadi. Bu sifatlarga o'qituvchining:

- pedagogik bilimi; - pedagogik zakovati; - pedagogik qobiliyati; - pedagogik texnikasi kiradi.

O'qituvchining faoliyati asosan uchta obektga yo'naltirilgandir.

Birinchi, shaxs sifatida o'qituvchi faoliyatining o'z-o'ziga yo'naltirilganligi. Bunda o'qituvchining:

- «Men» obrazi nazarda tutiladi, ya'ni o'qituvchi o'zining kandy inson ekanligini anglab etadi. Masalan, «Men juda qattiqqo'lman, shuning uchun bolalarga nisbatan e'tiborli va tuzimli bo'lishim kerak», - singari o'z nutai nazariga ega bo'lishi;

- mustaqil bo'lishi, ya'ni u uz kuchi va bilimiga ishonishi va uni takomillashtirib borishi lozim;

- psixologik va fiziologik salomatligi, o'z-o'zini himoya qila olishi. Bunda masalan, o'qituvchining darsda xis-xayojonlarini bartaraf etishi, darsni yuqori kayfiyat bilan olib borishi, har kandy sharoitda ham asab tolalarini saklagan xolda o'zining tetik xrlatini buzmaslik va x.k;

- o'z qadriga etishi, ya'ni o'zi va o'z kuchiga ishongan holda mohir o'qituvchi ekanligini anglashi;

- o'z mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Ikkinchi, o'qituvchi faoliyatining boshqa shaxslarga, jumladan, o'quvchi shaxsiga yunaltirilganligidir.

Bunda o'qituvchining:

- o'quvchilarga insonparvarlik nuqtai nazaridan munosabatda bo'lishi;

- o`quvchilarning ishonchiga kirishi;
- o`quvchilarga turli xil vaziyatlarda yordam berishi;
- o`quvchilarni qo`llab-quvvatlashi;

bir-birini tushuna bilishi;

- o`quvchining fikrlarini tulik yoritishiga sharoit yaratishi;
- o`z qobiliyatlari, imkoniyatlari va o`zligini anglashiga yordam berishi;
- hokimlik qilishi, ya'ni o`quvchilarni boshqara olishi;
- muloqotga kirisha olishi.

Uchinchidan, o`qituvchining o`z faoliyatiga yunaltirilganligi. Bunda o`qituvchi o`zining pedagogik faoliyati jarayonida pedagogik jamoa orasida:

- O`z ijtimoiy mavqesiga ega bo`lishi;
- o`z tarafdorlariga ega bo`lishi;
- o`z bilimi va tafakkurini oshirib borib, yangilik sari intilishi;
- samarali natijalarga erishishi;
- o`z faoliyatini samarali tashkil etishi;
- tajriba orttirishi;
- ish sharoitini yaratishi;
- ijod etishi

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

### **I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -T.: "Adolat", 2010.

### **II. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari**

2. 2009 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2010 yilda iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlari to'g'risida. Xalq so'zi. №33. 2010 yil.

### **III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari**

3. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. -T.: O'zbekiston, 2005

4. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: «O'zbekiston» 1997.

5. Karimov I.A. Demokratik xuquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish-farovon hayotimiz garovidir". T.: O'zbekiston, 2007 .

6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T.;Ma'naviyat, 2008.

7. Karimov I.A. «Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» T.: O'zbekiston, (2009).

8. Karimov I.A. "Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi". T.: O'zbekiston, 2010.

9. Karimov I.A. "Asosiy vazifamiz Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir". T.: O'zbekiston, 2010.

10. Karimov I.A. «Bizning ezgu maqsadimiz – taraqqiy topgan davlatlar qatoriga kirishdan iborat» T.: O'zbekiston, (2010).

11. Karimov I.A. «Mamlakatimizni modernizasiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir» T.: O'zbekiston, (2010).

12. Karimov I.A. «Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi» T.: O'zbekiston, (2011).

13. Karimov I.A. «O'zbekiston Mustaqilikka erishish ostonasida». T. O'zbekiston 2011

#### **IV. O'zbekiston Respublikasi vazirliklari me'yoriy-huquqiy hujjatlari**

14. 2010 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2011 yilda iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlari to'g'risida. Xalq so'zi. №33. 2011 yil.

#### **V. Darsliklar.**

##### **O'zbekiston Respublikasida chop etilgan**

15. Azizxodjaeva N.N. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoye masterstvo. -T.: Izdatelsko-poligraficheskiy tvorcheskiy dom im. Chulpana. 2005.

16. A. Munavvarov. Pedagogika. -T.: - 1996y

17. **Muslimov N.A.** Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. T.: 2004 y

#### **VI. O'quv qo'llanmalari**

18. **Berdiev G.J, Mamedov K.K** Pedagogik mahorat. (Ma'ruza matnlari). -T.: ToshDAU nashr taxririya bo'limi. 2002.

19. Rasulova L. Pedagogik mahorat fanidan ma'ruzalar matni. FarDU - 2002y.

20. Tolipov O'. Ta'lim: O'qituvchi va o'quvchi faoliyati // Sog'lom avlod uchun j. 2000. № 7-8.

21. G'affarov A.Z., Yugay A.X. Pedagogika amaliyoti. T. 2002

22. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik-asoslari. -T.: 1993.

#### **VII. Rossiya federasiyasida chop qilingan o'quv qo'llanmalari**

23. Arnautov V.V., Monaxov V.M. Optimizatsiya uchebnogo protsessa.-Moskva: Mixaylovka. MSOP. 1997.

24. Tolipov U.K. Pedagogicheskaya texnologiya v professionalnom obrazovanii uchiteley // Mat. I mejdunarodnoy nauchno-metodicheskoy konf. Tom. II.-Taraz: 1988.

#### **VIII. Gazeta va jurnallar**

25. Tolipov O`. Tajriba-sinov ishlarida yangi pedagogik texnologiyalar // Xalq ta'limi j. 1999. №2-3.

26. Aytimbetov M. Pedagogik mahorat // Maktab va hayot j. 2009. №5.

### **IX. Virtual kutubxona elektron darsliklari va o'quv qo'llanmalari**

27. Jizzax Davlat Pedagogika instituti «Pedagogika va psixologiya» kafedrasining ma'ruza matnlari. 2009–2011 yillar.

### **X. Internet saytlari**

1. <http://www.nuu.uz>
2. <http://www.istedod.uz>
3. <http://www.academy.uz>

**Педагогик маҳорат** – бу ўқув жараёнининг барча шаклларида энг мақбул ва самарали ҳолатда ташкил этиш, уларни шахс камолоти мақсадлари томон йўналтириш, ўқувчиларда дунёқарашни шакллантириш, қобилиятни ривожлантириш, уларда жамият учун зарур бўлган фаолиятга мойиллик уйғотишдир.

*...ёмон ўқитувчи ҳақиқатни айтиб қўя қолади, яхши ўқитувчи эса ҳақиқатни топишга ўргатади...*

# ЎҚИТУВЧИНИНГ ПЕДАГОГИК ҚОБИЛИЯТЛАРИ

- 1. Дидактик қобилият (тушунтира олиш)** - ўқув материални ўқувчиларга тушунарли баён этиш, уларда мустақил равишда актив фикрлашга қизиқиш уйғотиш қобилиятидир.
- 2. Академик қобилият (билиш)** - фаннинг тегишли соҳаларига оид қобилиятлар, яъни фанни ўқув курси ҳажмидагина эмас, балки кенг ва чуқурроқ билади. Ўз фани соҳасидаги кашфиётларни кузатиб боради, материални ипидан игнасигача билади, ҳеч бўлмаса оддийгина тадқиқот иши олиб боради.
- 3. Перцептив қобилиятлар (кузатувчанлик)** - ўқувчининг ички дунёсига кира олиш қобилияти, ўқувчи шахсини ва унинг вақтинчалик психик ҳолатларини жуда яхши тушуниш билан боғлиқ бўлган психик кузатувчанлик.
- 4. Нутқ қобилияти** – нутқ ёрдамида, шунингдек мимика ва пантамима воситасида ўз фикр ва ҳис туйғуларини аниқ ва равшан ифодалаш қобилияти.



**5. Ташкилотчилик қобилияти** – ўқувчилар жамоасини уюштириш, жипслаштириш, муҳим вазифаларни ҳал этишда руҳлантириш ва ўз шахсий ишини тўғри уюштириш.

**6. Авторитар қобилиятлар (обрў орттира олиш)** – ўқувчиларга бевосита эмоционал – иродали таъсир кўрсатиш ва шу асосда обрў қозона олиш. (далиллик, чидамлилик, қатъийлик, талабчанлик, масъулиятни ҳис этиш).

**7. Коммуникатив қобилият** – болаларга аралашиш, ўқувчилар билан тил топа олиш қобилияти. Болаларга яқинлаша олиш, улар билан педагогик нуқтаи назардан жуда самарали ўзаро муносабатлар ўрната билиш, педагогик назокатнинг мавжудлигини билдиради.

**8. Педагогик хаёл (келажакни кўра билиш қобилияти)** - ўз харакатларининг оқибатини кўра билиш, ўқувчининг келгусида қандай одам бўлишини тасаввур қила олишида, тарбияланувчида қандай фазилатларни тараққий эттириш лозимлигини олдиндан айтиб бера олишда ифодаланadi. Болалардан келажакда қандай инсон чиқиши мумкинлигига ишонч билдириш

**9. Диққатни тақсимлай олиш қобилияти**- ўқитувчи учун диққатнинг барча хусусиятлари-ҳажми, кучи, кўчувчанлиги, идора қилина олиши, сафарбарлиги кабиларнинг тараққий этилиши.

**10. Эътиқод, одоб, фуқаролик бурчини англаш** - ўқитувчининг асосий сифатларидан биридир. Ўқитувчи ўзи тарғиб қилаётган идеалнинг фазилятларининг шахсий намунасида кўрсатиши керак. Ижтимоий фаоллик ва фуқаролик бурчини англаш ўқитувчи шахсига хос сифат, зеро ҳақиқий педагог тўла маънодаги жамоатчи бўлиб, ўқувчиларга ҳаётда ижтимоий фаол ҳолатда туришнинг амалий намунасини кўрсатади .

**11. Гностик қобилият (англаш)** - тадқиқотга лаёқатлилик бўлиб, ўз фаолиятини, бу фаолият жараёнини ва унинг натижаларини текшириш ҳамда ўрганиш натижаларига мувофиқ фаолиятни қайта қуриш қобилиятидир.

**12. Ўқитувчи одоби** умуминсоний ахлоқнинг тушунчалари, қоидалари ва меъёрларини таълим-тарбия жараёнига хос хусусиятлари билан уйғунлаштириб, педагогнинг ўқувчилар, ўқитувчилар жамоаси, ота-оналар ва жамоатчилик вакиллари билан муносабатида ифодаланадиган касбий-ахлоқий хусусиятдир.